O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent davlat agrar universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori,
professor _____ S.G. Boboyev
Ro‘yxatga olindi: *№ BD-60840300-1.10*
2025-yil “28” iyun

O‘ZBEK TILI

FANNING O‘QUV DASTURI

(Rus guruhlari uchun)

Bilim sohasi:	800000 –	Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	840000 –	Veterinariya
Ta’lim yo‘nalishi:	60840100 –	Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha)
	60840300 –	Veterinariya-sanitariya meditsinasi

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi O'RT 1105	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	**Ta'lim tili** O'zbek		**Hafta dars soatlari** 6	
1.	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	O'zbek tili	72	108	180

2.

I. Fanning mazmuni

O'zbek tili fanida rus guruhlari uchun o'zbek adabiy tilining imlo qoidalari, og'zaki va yozma shakli hamda qishloq xo'jaligi sohasiga oid atamalar haqida ma'lumot berish nazarda tutilgan.

Fanning asosiy maqsadi - talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo'yicha egallangan bilim, ko'nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo'llash malakasini shakllantirishga qaratiladi. O'zbek tilining grammatik jihatdan o'rganish, uning uslubiy jihatdan rang-barangligini farqlash, turli matnlar tuzish va mutaxassislik bo'yicha maqola va referatlar yozish ko'nikmasini qilish zarurdir. Rusiyzabon talabalarning o'zbek tilida erkin muloqot qilishi, fonetik va morfologik jihatdan to'g'ri gap tuzishi, kelajakda korxona va muassasalarda davlat tilida hujjatchilikni olib borishi uchun bu fan zarurdir.

Fanning vazifasi - nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish; ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish; sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan elektron hujjatlarni to'ldirish va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish. Rusiyzabon guruh talabalariga o'zbek tili grammatikasini, imlo qoidalarini o'rgatish, ular asosida badiiy matnlar tuzish, ilmiy maqolalar va referatlar yozish, ish qog'ozlarini yuritish malakalarini shakllantirish, talabalarning o'zbek (davlat tili sifatida) tilida bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va takomillashtirishdan iborat.

II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan bo'yicha ma'ruza vashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

II.I. Fan tarkibiga amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular kiradi.

1-mavzu. Dunyo tillari. Tilning leksik qatlami. Til - milliy madaniyatimizning ko'zgusi. Dunyo tillari haqida nazariy ma'lumotni mustahkamlash.Tilning lug'at boyligini oshish yo'llari. "Til - milliy

madaniyatimizning ko'zgusi" mavzusida matn yozish.

2-mavzu Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi. O'zbekiston - mening Vatanim. Mavzuga oid matnni tez va ravon o'qish, mazmunini to'liq tinglab tushunish. Matndan tayanch so'z va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash.

3-mavzu. O'zbek tilining jahon tillari o'rtasidagi o'rni. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek yozuvlarining piktografik, ideografik, fonografik turlari haqida misollar orqali ma'lumot beriladi. Yozuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi, yuzaga kelishi hamda Markaziy Osiyoda yashagan ajdodlarimiz oromiy, yunon, pahlaviy, hind yozuvlaridan foydalangani haqida eron, grek, xitoy tarixchilarining asarlari haqida ma'lumot beradi.

4-mavzu. Atama va ularning vujudga kelishi. O'zbek tili – Davlat tili. Atamalarning vujudga kelishi va turlari haqida ma'lumot berish. Davlat tili haqidagi qonunning asl mohiyati. O'zbek tilining tarixi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish. "Men o'zbek tilini o'rganyapman" mavzusida dialog tuzish. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltirish.

5-mavzu. Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik. Milliy qadriyatlar – ma'naviy boyligimiz. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalaridan oqilona va tejamli foydalanishga qaratilgan suhbat tashkil qilish. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Milliy urf-odatlarni ta'riflab berish. Biror milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish.

6-mavzu. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Odobning boshi – til. Til madaniyati, til odobi paydo bo'lishi jihatidan qadimga borib taqalishi M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari orqali tushuntiriladi. Mavzu bo'yicha savol-javob o'tqaziladi. "O'rmon hayvonlari" mavzusida suhbat tashkil etiladi.

7-mavzu. Adabiy til va uning xususiyatlari. Adiblar xiyoboni. Ulug' ajdodlarimizga ehtirom. Adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari va me'yorlari haqida izoh berish. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni kengaytirib so'zlab berish. Matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlash. Mashhur allomalrdan biri haqida taqdimot tayyorlash. Buyuk allomarimizning asarlari ro'yxatini tuzish.

8-mavzu.Frazeologik iboralarning turlari. O'zbek xalq maqollari – xalq donishmandligi. O'zbek xalq maqollarining yaratilishi va turlari haqifda ma'lumot berish Salomatlik, tabiat, ekologiya va atrof-muhitga doir maqollar keltiriladi. Mavzu bo'yicha baxs-munozarada ishtirok etish. Xalq maqollari turlari bo'yicha misollar yozish va izohlash. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozish.

9-mavzu. Matn va uning ko'rinishlari. Matnda gap bo'laklari. Sodda gap va uning turlari. Jadid adabiyotining yurik vakillari. Sodda gap tarkibiga

ko'ra: og'zaki va nominal gaplar, aniq-shaxs, noaniq-shaxs, umumlashgan-shaxs va shaxssiz gaplar, to'liq va to'liqsiz gaplar haqida umumiy tushuncha berish. Dunyoning TOP-300 universitetlari dasturiga muvofiq ushbu mavzu sodda to'liq va to'liqsiz gaplar tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga, savol-javob dialoglarini qurish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy, kompetensiyalar ro'yxatini tuzish va uni misollar bilan izohlab berish. Soha terminlari ishtirokida kichik matn tuzish. Matnning asosiy va yordamchi qismlarini farqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi leksik-sintaktik vositalar.

10-mavzu. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Abdulla Qodiriy va uning zamondoshlari. Adib zamondoshlari, safdoshlari haqida ma'lumot beriladi. Ularning ro'yhati tuziladi va Abdulla Qodiriy haqidagi fikrlari o'rganib talabalar tomonidan o'zlashtiriladi.Jadid adabiyoti vakillari ijodini o'rgatish.

11-mavzu. Mustaqil so'z turkumlari. Ot - mustaqil so'z turkumi. T.Qaipbergenov ijodida ekologik muammolarning yoritilishi. Mavzu bo'yicha baxs-munozarada ishtirok etish. Ekologik muammolar haqida fikr yuritish. Adibning "Boqiy dunyodagi bobomga xatlar" essesini muhokama qilish.

12-mavzu. Sifat – mustaqil so'z turkumi. Tabiat va inson munosabati. Qishloq xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarishda inson munosabatlari. Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozish. "Orol fojeasi" mavzusida taqdimot tayyorlash. O'zbekiston ekologik harakatining faoliyati to'g'risida ma'lumot tayyorlash.

13-mavzu. Son – mustaqil so'z turkumi. Inson va salomatlik. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Mavzu bo'yicha baxs-munzarada ishtirok etish. "Salomatligimiz o'z qo'limizda" mavzusida esse yozish. Jazirama issiqdan oson o'tishga yordam beradigan oziq-ovqat mahsulotlari. Salomatlik haqidagi o'zbek xalq maqollaridan namunalar yozish. Mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzish.

14-mavzu. Olmosh – mustaqil so'z turkumi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni reja asosida so'zlab berish. "Shoirning hayoti va ijodi" mavzusida matn tuzish. Alisher Navoiyning "Mahbub ul - qulub" asaridagi didaktik mavzularning yoritilishi haqida ma'lumot berish.

15-mavzu. Fe'l – mustaqil so'z turkumi. Adabiyot-ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba. Fe'l va uning turlari haqida ma'lumot berish. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Yosh avlodning tarbiyasida adabiyotning, kitobxonlik o'rni haqida matn tuzish. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

16-mavzu. Ravish- mustaqil so'z turkumi. Muzeylar – o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnga munosabat bildirib so'zlash. O'zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot

	4. http://www.lex.uz 5. http://www.ziyonet.uz/ 6. http://www.thinsan.uz/
7.	**O'quv dasturi TDAU Kengashining 2025-yil "28" 08 dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **S.Xalmirzayeva** – Toshkent davlat agrar universiteti,"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, professor. **M.Nurutdinova** - Toshkent davlat agrar universiteti,"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** **G. Keldiyorova** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. **N. Alavuddinova** – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

- Talabalar o'z kasbiy sohalariga mos ravishda o'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til me'yorlari, imlo qoidalari, adabiy til uslublari, sohaga oid atamalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;;
- Talabalarning og'zaki nutqini adabiy o'zbek tili me'yorlari asosida sifat jihatidan yaxshilash va so'z boyligini oshirish, soha bo'yicha qo'llaniladigan atama va so'zlarni to'liq o'zlashtirish, o'z kasbiy sohalariga mos ravishda o'zbek adabiy tili me'yorlari, imlo qoidalari, adabiy til uslublari, atamalarning tasnifi va talqini bo'yicha yechimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

4. **VI.Ta'lim texnologiyalari va metodlar**

- amaliy ta'lim;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- munozara;
- mustaqil o'rganish
- so'rov o'tkazish.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

6. **VIII. Asosiy adabiyotlar:**

1.S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilini sohada qo'llash". Darslik. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
2.S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2024.
3.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tili".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
4.F.Ashurova "O'zbek tilinining sohada qo'llanilishi". O'quv qo'llanma.Toshkent, "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi" MChJ. 2023.
5.M.Sh.Nurutdinova "O'zbek tilini sohada qo'llash".O'quv qo'llanma. Toshkent, nashriyot "Hilol media"-2023.

Qo'shimcha adabiyotlar:

6.S.Sh.Xolmirzayeva, "O'zbek tilini sohada qo'llash". Darslik. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.
7. S.Sh.Xolmirzayeva, "Davlat tilida ish yuritish".O'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent, 2025.

Axborot manbalari

1. http://solver.uz/translate.php
2. http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx
3. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx.

tayyorlash. Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma'lumot tayyorlash.

17-mavzu. Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchi va uning turlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish. Ekektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlarining ro'yxatini tuzish.

18-mavzu. Bog'lovchi va uning turlari. Sharq akademiyalari. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni davom ettirgan holda so'zlab berish. Ilmga fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta'riflab berish. Ixtisoslik sohasining ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnoma matnini tayyorlash.

19-mavzu. Yuklama va uning turlari. Kasb etikasi. Soha xodimlarining odob-ahloq qoidalari bilan tanishish va ular haqida gapirib berish. Odob-axloq mavzusidagi hikmatlarni yod olish. Mavzu bo'yicha baxs-munozarada ishtirok etish. Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotasiya yozish. "Soha mutaxassisining odobi va axloqi" mavzusida dialog tuzish va uni instsenirovka qilish. Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materiallarining xususiyatlari. Axloqiy mavzudagi maqol, hikmatli so'zlar va hikoyalar bilan tanishish.

20-mavzu. O'zbekiston madaniyati haqida ma'lumot. Kasbga yo'naltirilgan muloqot madaniyati. Adabiy til me'yorlari. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Kasbiy faoliyatda nutq odobining ahamiyati haqida gapirib berish. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o'yin ssenariysini tuzish va instsenirovka qilish.

21-mavzu. Modal so'zlar, undov va taqlid so'zlar, ularning talaffuzi va imlosi. Adabiyot, san'at va ma'naviyat. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni ijodiiy so'zlash. "San'at mening hayotimda" mavzusida esse yozish. San'atkorlarni ta'riflab, reklama matnini tayyorlash. O'zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida publitsistik maqola yozish. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozish. San'at vakillari hayoti va ijodidan kichik matn tuzish.

22-mavzu. Gap bo 'laklari. Gapning bosh bo 'laklari. Ega va uning ifodalanishi. Agrar sohadagi islohotlar. Sodda va qo'shma gap tarkibiga ko'ra: og'zaki va nominal gaplar, aniq-shaxs, noaniq-shaxs, umumlashgan-shaxs va shaxssiz gaplar, to'liq va to'liqsiz gaplar haqida umumiy tushuncha berish. Dunyoning TOP-300 universitetlari dasturiga muvofiq ushbu mavzu sodda to'liq va to'liqsiz gaplar tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga, savol-javob dialoglarini qurish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy, kompetensiyalar ro'yxatini tuzish va uni misollar bilan izohlab berish. Soha terminlari ishtirokida kichik matn tuzish.

23-mavzu. Kesim va uning ifodalanishi. Kitob – eng yaqin do'st. Ot kesim va fe'l kesim haqida ma'lumot bering. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Kitob-mening taqdirimda mavzusida taqdimot tayyorlash. Kitoblar bizni yangi dunyo bilan tanishtiradi, bilim va tajribamizni bilan oshiradi.

24-mavzu. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Internetning hayotimizda tutgan o'rni. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzish va tavsiya qilish. Internetdan foydalanish to'g'risida matn tuzish. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash haqida internet orqali ma'lumot olish.

25-mavzu. Aniqlovchi. Tabiat va inson. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Bizning hayotimiz davomida tabiiy resurslarni qanday ishlatayotganimiz kelajak avlodlarimiz uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Matnga munosabat bildirib so'zlash. "Tabiat va inson" mavzusida matn tuzish.

26-mavzu. To'ldiruvchi. Davrimizning globall muammolari. Matnni kengaytirib so'zlab berish. Matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlash. Globall muammolarining biri haqida taqdimot tayyorlash. Globall muammolarining ro'yxatini tuzish.

27-mavzu. Hol. Kelajak bilimli yoshlar qo'lida. Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. "Kelajak bilimli yoshlar qo'lida". mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish. Nima uchun kelejak bilimli yoshlar qo'lida ekanligini tushuntirib, izohlash.

28-mavzu. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning turlari. Men tanlagan kasb. Nutqning uslublarga bo'linishi yuzasidan tushuntirish beriladi. Sohaga oid matnlar asosida suhbat tashkil qilinadi. Sohaga oid mavzuda esse yoziladi va tahlil qilinadi. Publitsistik uslub xususiyatlari yuzasidan tushuntirish beriladi. Kasbiy sohaga oid matnlar asosida mashqlar bajariladi.

29-mavzu. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Soha bo'yicha ilmiy maqola yozish. Qishloq xo'jaligi sohasidagi ilmiy matn tahlil qilinadi. Soha mavzusida suhbat tashkil etiladi, mavzu yuzasidan insho yoki ijodiy matn yoziladi va sohada uchraydigan atamalar izohlanadi, ilmiy atamalarning qo'llanilishi matnlar orqali tahlil qilinadi. Sohada olib borilayotgan innovatsion ilmiy izlanishlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

30-mavzu. Hujjat turlari va xususiyatlari. Hujjat – ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Normativ hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Hujjatlarning tasniflanishi. Hujat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari. Ish yuritish hujjatlarining ro'yxatini tuzish. Ularni klaster shaklida tasniflash.

31-mavzu. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari. Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo'riqnoma. Mehnat shartnomasi matnini tuzish. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarni ajratib yozish.

32-mavzu. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari. Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Farmoyish hujjatlarining turlari. Buyruq. Farmoyish hujjatlarining leksik va stilistik xususiyatlari. Farmoyish va ko'rstma tayyorlash.

33-mavzu. Ma'lumot-axborot hujjatlari. Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlaridan: ariza va uning turlari, bildirgi va uning turlari, tavsifnoma va tavsiyanoma haqida ma'lumot berish.

34-mavzu. Ma'lumot-axborot hujjatlari. (davomi) Tushuntirish xati, tarjimaiy hol, majlis bayoni, dalolatnoma, ishonchnoma va tilxat kabi hujjat turlarining matnini tayyorlash.

35-mavzu. Xizmat yozishmalari. Xatlar. Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. Axborot xati, tasdiq xati, farmoyish xati, kafolat xati kabi hujjat turlari haqida ma'lumot berish va namunalar yozish.

36-mavzu. Taqriz, annotatsiya, referat matnining tuzilishi va yozilishi haqida ma'lumot. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi. Annotatsiya biror bir nashr etilayotgan kitob haqidagi qisqacha axborot. O'tilganlar yuzasidan takrorlash.

III. Fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

O'zbek tili fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi.
2. She'r yodlash, kitob mutolaasi.
3. A.Navoiy va Z.M.Bobur asarlari haqida taqdimot tayyorlash.
4. O'zlashgan so'zlar ishtirokida matn tuzish.
5. Badiiy asarlardan iboralarga misollar to'plash.
6. Imlo xatolar yo'l qo'yilgan axborot tizimlariga oid matnlarni ko'zdan kechirib, ulardagi xatolarni muhokama qilish.
7. So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida klaster tuzish.
8. Jadidchilik harakati namoyandalari to'g'risida kichik matn tuzish.
9. Soha bo'yicha kichik hajmdagi maqola yozish.
10. Otlarning kelishiklarda turlash.
11. Fe'llarning zamonlarda tuslash.
12. Kasbiy sohaga oid ish qog'ozlaridan namunalar tayyorlash.

3.

V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompitensiya)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Talabalar o'z kasbiy sohalariga mos ravishda o'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til me'yorlari, imlo qoidalari, og'zaki va yozma nutqning o'ziga xosligi, adabiy til uslublari, atamalarning tasnifi va talqini hamda ularning boyib borish usullari haqida *tasavvurga ega bo'lishi;*